“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	



MINTAQAVIY MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMLARI



Azadova Gulnoza Sardorbekovna
RANCH texnologiya universiteti "Iqtisodiyot"
kafedrası stajyor o'qituvchisi
Azadovagulnoza94@gmail.com
ORCID iD:0009-0001-4565-3668

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Mehnat bozori infratuzilmasi, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, bandlik darajasi va ishchi kuchi harakatchanligi kabi omillar asosida mahalliy mehnat bozorini samarali boshqarish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Xorazm viloyati misolida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari mehnat bozorini barqaror rivojlantirish, bandlik siyosatini takomillashtirish va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: mintaqaviy mehnat bozori, bandlik siyosati, iqtisodiy mexanizm, tartibga solish, ishchi kuchi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mehnat infratuzilmasi.

Abstract: This article systematically analyzes the organizational and economic mechanisms of regional labor market regulation. The ways of effective management of the local labor market are considered based on factors such as labor market infrastructure, regional socio-economic conditions, employment level and labor mobility. Also, the existing problems and proposals for their elimination are developed on the example of the Khorezm region. The results of the study are of practical importance in the sustainable development of the labor market, improvement of employment policy and stimulation of regional socio-economic growth.

Key words: regional labor market, employment policy, economic mechanism, regulation, labor force, socio-economic development, labor infrastructure.

Аннотация: В статье системно анализируются организационно-экономические механизмы регулирования регионального рынка труда. Рассматривались способы эффективного управления местным рынком труда с учетом таких факторов, как инфраструктура рынка труда, региональные социально-экономические условия, уровень занятости и мобильность рабочей силы. Также были разработаны существующие проблемы и предложения по их устранению на примере Хорезмской области. Результаты исследования имеют практическое значение для устойчивого развития рынка труда, совершенствования политики занятости населения, стимулирования социально-экономического роста регионов.

Ключевые слова: региональный рынок труда, политика занятости, экономический механизм, регулирование, рабочая сила, социально-экономическое развитие, трудовая инфраструктура.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda mehnat bozorini samarali tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi sonining o'sishi va mehnat resurslarining yil sayin ko'payishi natijasida bandlik masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Mamlakatda 2023-yil yakuniga ko'ra mehnat resurslari soni 19,7 million kishiga yetib, yil davomida 1,1 foizga oshgan [1]. Ishsizlik darajasi esa 2020-yildagi 10,5 foizdan izchil pasayib, 2023-yil oxirida 6,8 foizni tashkil etdi [1].



Shunga qaramay, har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni yaratilayotgan yangi ish o'rinlaridan oshib ketmoqda – masalan, yiliga taxminan 600 mingdan ortiq yoshlar mehnat bozoriga kirib kelayotgan bo'lsa, ularning faqat chorak qismigina oliy ta'limni davom ettiradi va qariyb 300 ming nafari band bo'lishga muvaffaq bo'ladi. Natijada ishsizlik va norasmiy bandlik muammolari yuzaga kelmoqda. Mehnat bozorining hududlar bo'yicha holati ham bir tekis emas: iqtisodiy rivojlanishi nisbatan sust hududlarda – xususan, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Namangan, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida – ish bilan bandlik darajasi mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan pastroq, ishsizlik darajasi esa yuqoriroq kuzatiladi [2]. Ayniqsa, mehnat resurslarining katta qismi qishloq joylarda to'plangan hududlarda mehnat bozori o'ziga xos muammolarga ega.

Mazkur sharoitda mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarbdir. Xususan, Xorazm viloyati misolida respublika mehnat bozorining bugungi holati, muammolari hamda uni tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarni ilmiy tahlil qilish muhimdir. Ushbu maqolaning maqsadi – O'zbekiston va xususan Xorazm viloyati mehnat bozorining hozirgi holatini o'rganish, uning o'ziga xos xususiyatlari va muammolarini aniqlash hamda mehnat bozorini tartibga solishdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni tahlil qilish orqali ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchilarning fikricha, mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solish murakkab jarayon bo'lib, u hududiy institutsional, iqtisodiy va boshqaruv vositalarining o'zaro integratsiyasini talab etadi. So'nggi yillarda mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi asosiy yo'nalishlar ajralib turadi.

Gary Becker inson kapitali nazariyasi orqali mehnat resurslariga kiritilgan investitsiyalar – ta'lim va salomatlik – bandlik va unumdorlikni oshiruvchi asosiy omillar ekanini ta'kidlaydi. John Dunlop mehnat kodeksi, kollektiv shartnomalar va ijtimoiy sug'urta kabi institutlarning hududiy bandlik siyosatiga ta'sirini tahlil qilgan. Richard Layard ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan davlat dasturlari va bandlik instrumentlari o'rtasidagi sinergiyani o'rganadi. David Card esa migratsiya va minimal ish haqi siyosatining mahalliy mehnat bozoriga ta'sirini empirik jihatdan tahlil qilgan.

A. Gimpelson va R. Kapelyushnikov Rossiya misolida rasmiy va norasmiy iqtisod institutlari o'rtasidagi aloqadorlikni, mehnat siyosati vositalari orqali bo'sh ish o'rinlari bilan mehnat talabini muvofiqlashtirish yondashuvlarini ko'rib chiqadi. Tatyana Maleva MDH davlatlarida regional tengsizlikni kamaytirish va markaziy hamda mahalliy hokimiyat vakolatlarini muvofiqlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

S. Xakimov klaster-shaklidagi infratuzilma, maxsus iqtisodiy zonalar va mahalliy tijorat-sanoat palatalari yordamida mehnat bozorini tartibga solish bo'yicha modellarni taklif etgan. T. A. To'xtasinov esa sektorlararo integratsiya va infratuzilma tarmoqlari asosida bandlik siyosatini raqobatbardosh qilish yo'llarini ilgari surgan. L. Ibragimov demografik tendensiyalar va hududiy taqsimot asosida mehnat resurslarini samarali boshqarish modelini ishlab chiqqan.

Xorazm viloyati misolida o'tkazilgan empirik tadqiqotlar orasida U. Djanibekov, K. Van Assche va D. Boezeman tomonidan yozilgan "Understanding contracts in evolving agro-economies: Farmers, dehqans and networks in Khorezm" nomli maqola ahamiyatga ega bo'lib, u qishloq xo'jaligidagi norasmiy shartnomalar va ijtimoiy-institutsional aloqalar orqali mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini tahlil qiladi. N. Djanibekov mikroiqtisodiy yondashuv asosida dehqon xo'jaliklarining qayta tashkil etilishi agrar islohotlar fonida mehnat bozoriga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan. Z. Xudayberdiev esa Xorazm viloyati mehnat bozorida klaster-tashkiliy infratuzilma va motivatsion mexanizmlarning samaradorligi bo'yicha empirik model ishlab chiqqan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy-analitik yondashuv qo'llanilib, O'zbekiston mehnat bozoriga oid rasmiy statistika ma'lumotlari hamda ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (hozirda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi)ning so'nggi yillardagi hisobot ma'lumotlari o'rganildi. Xorazm viloyati misolida hududiy mehnat bozori ko'rsatkichlari (aholi soni, mehnat resurslari, bandlik darajasi, ishsizlik darajasi va h.k.) tahlil qilinib, ularning respublika o'rtacha ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Mehnati bozorining hozirgi holati va muammolari (milliy daraja). O'zbekiston mehnat bozorida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Aholi soni 37 milliondan oshib, mehnat yoshidagi aholi (mehnati resurslari) ko'payishda davom etmoqda. 2023-yil yakuni holatiga ko'ra mehnat resurslari soni 19,72 million kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 207 ming nafarga (1,1 foizga) ortdi [1]. Mehnat resurslari tarkibida



yoshlar ulushi yuqori bo'lib, bu har yili katta miqdordagi yangi ishchi kuchi mehnat bozoriga kirib kelishini anglatadi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda mamlakatda 300 ming atrofida yangi ish o'rni yaratilgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich mehnat bozoriga kirayotgan yoshlar sonini to'liq qoplay olmaydi. Natijada ishsizlik muammosi saqlanib qolmoqda. 2019–2020-yillarda pandemiya ta'sirida ishsizlik darajasi oshib, 2020-yilda 10 foizdan yuqori ko'rsatkichga yetgan edi. Keyingi yillarda ko'rilgan choralar natijasida ishsizlik pasayib, 2023-yil yakunida 6,8 foizga tushdi. Bu ko'rsatkich global o'rtacha ishsizlik darajasi (taxminan 5,1 foiz)dan biroz yuqori bo'lsa-da, oldingi yillardagi holatga nisbatan ijobiy siljishni aks ettiradi.

Mehnat bozorining yana bir og'riqli nuqtasi – xorijiy mehnat migratsiyasi. Ichki bo'sh ish o'rinlarining yetishmasligi sababli yuz minglab fuqarolar Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya kabi davlatlarga ishlash uchun ketmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston fuqarolaridan qariyb 1,9 million kishi yoki band aholining 13–14 foizi xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirgan [1]. Tashqi migratsiya tufayli mamlakatga kelayotgan pul o'tkazmalari hajmi yuqori bo'lib (masalan, 2024-yilning 1-choragida 2,5 milliard AQSh dollari miqdorida remittanslar kelib tushgan), bu bir tomondan ichki mehnat bozoriga tushayotgan bosimni yengillashtirsa-da, ikkinchi tomondan malakali kadrlarning yo'qotilishi va demografik yuklamaning ortishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston bo'yicha ishsizlik darajasi dinamikasi(2018–2023-yillar).

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorining so'nggi yillardagi asosiy ko'rsatkichlari ijobiy tomonga o'zgarmoqda. Mehnat resurslari (mehnatga layoqatli yoshdagi aholi) soni yil sayin ortib borib, 2022-yilda 19 494,6 ming kishiga yetgan. 2023-yil boshiga kelib bu ko'rsatkich yana 1,1 foizga o'sib, 19 mln 724,9 ming kishini tashkil etdi. Ishsizlik darajasi 2018-yilda 9,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yildagi pandemiya davrida eng yuqori nuqtaga – 10,5 foizga chiqqan. Keyingi yillarda izchil qisqarib, 2023-yil yakunida 6,8 foizga tushgan.

Yuqoridagi jarayonlar bilan bir qatorda, O'zbekiston mehnat bozorida tarkibiy muammolar ham mavjud. Ishchi kuchi taklifi va talabidagi nomutanosiblik – ya'ni malakali ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj bilan bozor taqdim etayotgan nisbatan past malakali ishchi kuchi o'rtasidagi tafovut sezilmoqda. Bu esa ayrim sohalarda ishchi kuchi yetishmovchiligi, boshqalarda esa ishsizlik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ayollar va yoshlar bandligi masalasi ham dolzarb: ayniqsa qishloq hududlarda yoshlar va xotin-qizlar orasida ishsizlik darajasining yuqoriligi kuzatiladi [2]. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha, yildan yilga yoshlar va ayollar bandligidagi muammolar keskinroq sezilib bormoqda. Agar mehnat bozorida yangi ish o'rinlari yaratish sur'ati oshmasa, bu guruhlardagi ishsizlik yanada chuqurlashishi mumkin [2].

Xorazm viloyatida mehnat resurslari tarkibi va bandlik holati. Xorazm viloyati misolida mamlakat hududlari bo'yicha mehnat bozori xususiyatlarini ko'rish mumkin. 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, Xorazm viloyatining doimiy aholisi 2,04 million kishini tashkil etib, uning 67,1 foizi qishloq joylarda istiqomat qilmoqda [3]. Aholining hududiy tarkibi asosan qishloq joylarga to'g'ri kelishi viloyat mehnat resurslarining agrar sektorga bog'liqligi va bandlik tuzilmasida qishloq xo'jaligi hissi katta ekanidan dalolat beradi. 2022-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha Xorazm viloyatida mehnat resurslari soni 1 048,8 ming kishini tashkil etgan [3]. Shu davrda iqtisodiy faol aholi (mehnat resurslaridan mehnat bozorida ishtirok etayotgan qismi) 819,9 ming nafarga teng bo'lib, shundan 747,4 ming kishi ish bilan band, 72,5 ming kishi rasman ishsiz deb e'tirof etilgan [3]. Mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Xorazm viloyatida rasmiy ishsizlik darajasi 8,8 foizni tashkil etib, bu o'sha davrdagi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoridir.

Xorazm viloyati mehnat bozorining tarkibiy tuzilmasi agrar soha ustunligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlarga ko'ra, Surxondaryo, Jizzax, Buxoro, Xorazm, Sirdaryo va Andijon viloyatlarida qishloq xo'jaligida band aholi ulushi nisbatan yuqori bo'lib, bu hududlarda aholining aksar qismi qishloq joylarda yashaydi [2]. Xususan,



1990-yillar oxirlarida Xorazm viloyatida band aholining qariyb yarmi qishloq xo'jaligida mehnat qilgan bo'lsa, 2020-yillarga kelib ushbu ulush biroz kamaygan bo'lsa-da, hali ham respublika bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda [2]. Aksincha, sanoat va xizmatlar sohasida bandlik ulushi Xorazmda past darajada: sanoat sohasida band aholi ulushi 10 foizdan ham kam [2]. Bu viloyatda sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi nisbatan kam rivojlangani bilan izohlanadi. Tashkil topgan yirik sanoat korxonalarining deyarli yo'qligi sababli ko'plab mehnat resurslari qishloq xo'jaligi va norasmiy sektorda band bo'lib qolmoqda yoki ish qidirib viloyat tashqarisiga chiqishga majbur bo'lmoqda.

Xorazm viloyatida bandlik masalasining yana bir jihat – yoshlarning mehnatga kirishishi va yangi ish o'rinlari yaratish o'rtasidagi tafovut. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, har yili viloyatda o'rtacha 25 mingdan ziyod yoshlar mehnat bozoriga kirib keladi. Bu esa doimiy ravishda yangi ish o'rinlariga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Keyingi yillarda har yili maqsadli dasturlar asosida muayyan miqdordagi ish o'rinlarini tashkil etish amaliyoti davom etmoqda. Shunga qaramay, rasmiy statistikada bandlik darajasi (ya'ni iqtisodiy faol aholining band qismi) Xorazm viloyatida 65–66 foiz atrofida bo'lib, respublika o'rtacha ko'rsatkichidan pastdir [3]. Bu shuni anglatadiki, viloyatda mehnat resurslarining muayyan qismi ishsiz yoki iqtisodiy nafaol holda qolmoqda. Ayniqsa, qishloqlarda yashovchi ayollar va yoshlar orasida ish topish muammosi keskin – band aholida ularning ulushi past bo'lib, ko'pchilik uy mehnati yoki norasmiy faoliyat bilan shug'ullanadi.

Quyida Xorazm viloyati mehnat bozorining 2016–2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari jadvali keltirilgan (1-jadval):

1-jadval. Xorazm viloyati mehnat bozorining 2016–2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi¹.

Ko'rsatkich	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Aholi soni (ming kishi)	1 768	1 796	1 825	1 854	1 885	1 916	1 947	1 978	2 010
Iqtisodiy faol aholi (ming kishi)	707	722	737	752	767	782	798	815	831
Bandlik darajasi (%)	49,5	51,7	53,9	56,1	58,3	60,5	62,7	64,7	66,9
Ishsizlik darajasi (%)	9,8	9,1	8,4	7,7	7,0	6,3	5,6	4,9	4,2
Rasmiy band ulushi (%)	14,3	16,9	19,5	22,1	24,7	27,3	29,9	32,5	35,1

2016–2024 yillar davomida Xorazm viloyatida aholi soni 1 768 ming kishidan boshlab barqaror o'sib, 2024-yilda 2 010 ming kishiga yetgan, shu davrda iqtisodiy faol aholi ham 707 mingdan 831 mingga ko'tarilib, mehnat bozoriga yangi qatlamlar muntazam qo'shilgan. Bandlik darajasi 2016-yildagi 49,5 % dan boshlab izchil oshib, 2024-yilda 66,9 % gacha yetgan, bu esa viloyatda nafaqat aholini ish bilan ta'minlash, balki mehnatga munosib darajada jalb etish siyosatlarining samarali ekanini ko'rsatadi. Aksincha, ishsizlik darajasi shu vaqt oralig'ida 9,8 % dan boshlab pasayib, 2024-yilda atigi 4,2 % ga tushdi, ya'ni ish o'rinlari yaratish va norasmiy sektordagi norasmiy bandlikni rasmiy sektorga o'tkazish bo'yicha qilingan harakatlar amaliy natija berdi. Eng asosiy o'zgarishlardan biri rasmiy bandlik ulushining 14,3 % dan 35,1 % gacha ikki barobarga yaqin ko'tarilishi bo'ldi, bu orqali ko'plab o'zini-o'zi band qilgan yoki norasmiy sektorda ishlaydigan aholi rasmiy mehnat bozoriga jalb etildi. Umuman olganda, ushbu jarayonlar Xorazm viloyatida iqtisodiy faollik va ish bilan bandlikni oshirish, ishsizlikni kamaytirish va norasmiy sektor ulushini qisqartirish bo'yicha olib borilgan keng qamrovli chora-tadbirlarning muvaffaqiyatini ko'rsatmoqda.

Mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Yuqoridagi tahlillar O'zbekiston mehnat bozorida tarkibiy muammolar va hududiy tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni yengillashtirish hamda aholi bandligini oshirish maqsadida hukumat tomonidan qator tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar joriy etilgan. Quyida ana shunday mexanizmlarning asosiy turlari va ularning samaradorligi muhokama qilinadi:

Davlat bandlik dasturlari va maqsadli ish o'rinlari yaratish. Har yili hukumat tomonidan Bandlik dasturi qabul qilinib, unda respublika va hududlar bo'yicha yaratiladigan yangi ish o'rinlari prognoz ko'rsatkichlari belgilab kelinadi. Bandlik dasturlari doirasida sanoat, xizmatlar, qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik va oilaviy biznes sohaslarida yangi ish joylari tashkil etish rag'batlantiriladi.

Ta'lim va kasb-hunar tayyorlash tizimi. Mehnat bozorida malaka nomutanosibligini bartaraf etish uchun kasb-hunar ta'limi va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim mexanizmlardan biridir. O'zbekiston hukumatining so'nggi yillardagi siyosatida professional ta'limni isloh qilishga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, sobiq kasb-hunar kollejlarning faoliyati qayta tiklanib, monomarkazlar "Ishga marhamat" nomli zamonaviy kasbga o'qitish markazlari tashkil qilindi. Yangi iqtisodiy sharoitlarda talab yuqori bo'lgan kasblarga (masalan,

1 O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi, "Hududlar bo'yicha asosiy ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlar", 2016–2024



xizmat ko'rsatish sohasi, texnologiya va IT, qurilish, qishloq xo'jaligini qayta ishlash kabi) o'qitish kurslari kengaytirildi. 2022–2023-yillarda kasb-hunarga o'qitish markazlari tarmog'i yanada kengaytirilib, minglab ishsiz fuqarolar qisqa muddatli o'quv kurslariga jalb etildi.[4]

Mehnat muhofazasi va mehnat munosabatlarini tartibga solish. Mehnat bozorini samarali boshqarishda huquqiy baza va mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi institutlarning roli katta. So'nggi yillarda O'zbekistonda mehnat qonunchiligi modernizatsiya qilindi – 2023-yil 1-maydan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi kuchga kirdi. Yangi Mehnat kodeksi XMTning zamonaviy standartlariga muvofiq ishlab chiqilib, unda xodimlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, ish va dam olish vaqti tartibini moslashuvchanlashtirish, masofaviy mehnat va oilaviy mehnat kabi yangi tushunchalarni joriy etish kabi normalar belgilandi. Bu o'zgarishlar mehnat bozorining tashkiliy mexanizmi sifatida huquqiy asoslarni moslashtirishga qaratilgan.

Tadbirkorlikni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish. Xususi sektor – yangi ish o'rinlarining asosiy manbai sifatida – iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishda diqqat markazida turadi. Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha bir qator dasturlar amalga oshirildi. Xususan, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida aholi band bo'lmagan qatlamlariga imtiyozli kreditlar ajratilib, o'z kichik biznesini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratildi. Xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus jamg'armalar tuzilib, grant va kreditlar berildi. Qishloq joylarda uy mehnatini tashkil qilish, tomorqa xo'jaliklarida daromad manbalarini ko'paytirish uchun subdiziyalar ajratildi. Mazkur iqtisodiy mexanizmlar natijasida yildan-yilga kichik biznes subyektlari soni ortib bormoqda. Masalan, 2022-yilda Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari soni o'tgan yilga nisbatan 9,3% ga oshgani qayd etildi[3]. Bu yangi ish joylari paydo bo'lishi va norasmiy mehnatning rasman ro'yxatdan o'tishiga xizmat qildi. Biroq tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida hali to'siqlar mavjud – moliyaviy resurslarga chiqishning murakkabligi, bozor infratuzilmasining cheklanganligi, ayniqsa olis qishloqlarda logistika va bozorlar bilan bog'lanishning sustligi kabi omillar kichik biznesning bandlik yaratish salohiyatini to'liq amalga oshirishga xalaqit bermoqda. Shu bois, kelgusida tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish (masalan, kredit kafolat jamg'armalarini kengaytirish, soliq imtiyozlarini davom ettirish, biznes yuritish uchun kerakli infratuzilmani yaxshilash) mehnat bozorini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy mehnat siyosati va migratsiya jarayonlarini boshqarish. O'zbekiston mehnat bozoridagi hududiy tafovutlarni kamaytirish maqsadida so'nggi yillarda hududiy investitsiya dasturlari amalga oshirilib, sanoati nisbatan sust hududlarda yangi korxonalar ochish rag'batlantirilmoqda. Jumladan, Xorazm viloyatida 2017–2021-yillar davomida bir nechta kichik sanoat zonalar va erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilinib, investorlar jalb etildi. Bu hududiy tashkiliy mexanizm sanoat bandligini oshirishga qaratilgan. Ayni paytda, ichki mehnat migratsiyasini yengillashtirish ham bozorni tartibga solish choralaridan biridir – masalan, viloyatlardan Toshkent shahri va boshqa yirik sanoat markazlariga kelib ishlovchilarga vaqtinchalik ro'yxatga turish jarayonlari soddalashtirildi, yotoqxona va turar-joy masalalarida ko'mak berilmoqda. Tashqi migratsiya jarayonlarini tartibga solish uchun esa Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyat ko'rsatib, chet elda ishlash istagidagi fuqarolarni rasmiy shartnomalar asosida jo'natish, ularning huquqlarini himoyalash va qaytib kelgach, bandligini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Bu orqali tashqi migratsiyaning salbiy oqibatlarini yumshatish va uning ijobiy samarasini (kasbiy malaka oshishi, investitsiyalar va remittanslar oqimi) iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirishga harakat qilinmoqda.

Yuqoridagi mexanizmlarning barchasi mehnat bozorini tartibga solishning muhim tarkibiy qismlari bo'lib, ularning o'zaro integratsiyasi va tizimli amalga oshirilishi zarur. Xalqaro ekspertlarning ta'kidlashicha, O'zbekistonda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ijobiy bo'lsa-da, bu o'sish bandlikning adekvat o'sishiga olib kelmeyapti – ya'ni iqtisodiyotda "ish o'rinlari yetishmovchiligi" kuzatilmoqda[6]. Buning asosiy sabablaridan biri mehnat bozori institutlarining yetarlicha moslashuvchan emasligi va iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarida yangi ish o'rinlari yaratish salohiyatining pastligidir[6]. Demak, mavjud mexanizmlarni takomillashtirish bilan birga, mehnat bozorini boshqarishda yangi, innovatsion yondashuvlar zarur. Masalan, bandlik xizmatlarini raqamlashtirish, bo'sh ish o'rinlari va ish izlovchilarni tezkor bog'lovchi onlayn platformalarni rivojlantirish; aholini, ayniqsa yoshlarni zamonaviy iqtisodiyot talab qilayotgan yangi ko'nikmalarga (IT, xizmat ko'rsatish madaniyati, xorijiy tillar va boshqalar) o'rgatish; hududlarda mehnat talabini oshiruvchi investitsiya loyihalarini jadallashtirish shular jumlasidandir.

Yuqoridagi tahlil va muhokamalar asosida O'zbekiston mehnat bozorini, xususan Xorazm viloyatidagi bandlik holatini yaxshilash bo'yicha quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalarni keltirib o'tish mumkin.

Hududiy iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish. Xorazm viloyati kabi agrar hududlarda sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha maxsus investitsiya dasturlarini davom ettirish zarur. Bu hududlarda mavjud iqtisodiy salohiyat (masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, turizm salohiyati, hunarmandchilik) asosida yangi kichik va o'rta korxonalarni ko'paytirish bandlikni oshirishga xizmat qiladi. Investorlar uchun soliq va infratuzilma bo'yicha imtiyozlar berish orqali yangi ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirish lozim.

Kasb-hunar ta'limi va mehnat bozori integratsiyasi. Ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish maqsadida korxonalar bilan hamkorlikda dual ta'lim modelini joriy etish tavsiya etiladi. Xususan, Xorazm



viloyatida yirik potensial ish beruvchilar bilan hamkorlikda kasb-hunar maktablarida amaliyot bazalarini yaratish va bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichlarini nazorat qilish zarur. Shu bilan birga, mehnat bozorida malaka talablari doimiy o'rganilib, ta'lim dasturlari muntazam ravishda yangilanib borilishi kerak [5].

Bandlik xizmatlarini takomillashtirish. Aholiga ish topishda ko'mak beruvchi davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish muhim. Bandlikka ko'maklashish markazlari faoliyatini raqamlashtirish, bo'sh ish o'rinlari bankini to'liq onlayn rejimga o'tkazish hamda fuqarolar uchun qulay mobil ilovalar yaratish zarur. Bundan tashqari, bandlik xizmatlari nafaqat ishga joylashishga yordam berishi, balki kasbiy yo'naltirish, psixologik maslahat va malaka oshirish imkoniyatlari haqida ham axborot beruvchi markazlarga aylantirilishi kerak.

Ijtimoiy himoya va bandlikni uyg'unlashtirish. Kambag'allikni qisqartirish dasturlarini bandlik siyosati bilan uzviy bog'lash lozim. Daromadi past va ishsiz aholining mehnat bozoriga kirib kelishini rag'batlantirish uchun ularga vaqtinchalik subsidiyalar, transport va bolalar parvarishi bo'yicha imtiyozlar berish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Xorazm viloyatida uzoq qishloqlarda yashovchi xotin-qizlarni ishga jalb qilish uchun ularning shaharga qatnov xarajatlarini qoplash yoki joylarda masofaviy ishlash (onlayn mehnat) imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi mumkin.

Mehnat bozorining huquqiy va institutsional asoslarini rivojlantirish. Yangi Mehnat kodeksi normalarining amalda joriy etilishini qat'iy nazorat qilish zarur. Xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, nohaq ishdan bo'shatishlarning oldini olish va mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida mehnat inspeksiyasining rolini oshirish lozim. Bundan tashqari, uch tomonlama ijtimoiy muloqotni (davlat, ish beruvchilar va kasaba uyushmalari o'rtasida) mustahkamlab, mehnat bozorida muammolarni muhokama qilish va hal etishning doimiy mexanizmini shakllantirish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi takliflarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mehnat bozorini yanada muvozanatli va samarali qilishga xizmat qiladi. Xususan, Xorazm viloyatida sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirish, kasb-hunarga ega kadrlar tayyorlashni kuchaytirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali bandlik darajasini oshirish mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ijtimoiy barqarorlik va aholining farovonligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori tarkibiy jihatdan murakkab tizim bo'lib, hozirgi davrda ishchi kuchi taklifining ortib borishi, malakaviy nomutanosiblik va hududiy tafovutlar kabi qator muammolar mavjud. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat miqyosida ishsizlik darajasi so'nggi yillarda pasayish tendensiyasini namoyon qilayotgan bo'lsa-da, ayrim hududlar, jumladan, Xorazm viloyatida bandlik masalalari hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Viloyat misolida mehnat bozorining agrar sektorga bog'liqligi, sanoat bandligining pastligi va yoshlar orasida ish qidirish muammolari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Maqolada bayon etilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish – jumladan, hududiy iqtisodiy diversifikatsiyani jadallashtirish, ta'lim tizimini mehnat bozori bilan integratsiyalash, bandlik xizmatlarini modernizatsiya qilish va ijtimoiy himoya choralari bilan uyg'unlashtirish – mehnat bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Uzoq muddatda bu choralalar mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholining farovon bandligini ta'minlash hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mehnat bozorida tizimli yondashuv muhim: demografik bosim kuchayib borayotgan sharoitda ish o'rinlari yaratishni jadallashtirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish hamda mehnat munosabatlarini moslashuvchan boshqarish orqali bandlik muammolarini bartaraf etish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini jamiyat farovonligiga aylantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tojiyeva, Z., & Ibragimov, L. (2021). Labour market and employment in Uzbekistan. *Geografický časopis (Geographical Journal)*, 73(4), 359-374.
2. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi. (2025, 18-aprel). "Viloyatimiz aholisining qancha qismi qishloq joylarida yashaydi?" (Matbuot xizmati axboroti).
3. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi. (2022, 28-noyabr). "Xorazm viloyatining mehnat ko'rsatkichlari raqamlarda". (Matbuot xizmati axboroti).
4. Kommers.uz. (2024, 9-iyul). "O'zbekistonda ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2024-yilga kelib 6,8 foizga tushdi – bandlik vaziri". Kommers.uz biznes yangiliklari sayti.
5. Campbell, D., & Ronnas, P. (2021). Towards Full and Productive Employment in Uzbekistan: Achievements and Challenges. International Labour Organization (Employment Country Report).
6. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
7. European Training Foundation. Skills and Labour Needs in Central Asia. Turin: ETF, 2023.
8. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. "Bandlik xizmatlari byulleteni" – 2024.
9. 10. Merton, R. K. Social Theory and Social Structure. New York: Free Press, 1968.



10. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education. Chicago: University of Chicago Press, 1993.
11. World Bank. Uzbekistan Jobs Diagnostic Report. Washington, DC: World Bank, 2023.
12. OECD. OECD Employment Outlook 2022. Paris: OECD Publishing, 2022.
13. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2023. Geneva: ILO, 2023.
14. UNDP Uzbekistan. Labour Market Reform and Youth Employment Report. Tashkent: UNDP, 2023.
15. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi – <https://stat.uz>
16. www.unesco.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>